

**Karimqulova Oygul Sunnatullo qizi**  
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali talabasi.  
[karimqulovaoygul@gmail.com](mailto:karimqulovaoygul@gmail.com)  
+998953532929

---

## **TALAB VA TAKLIF NAZARIYASI. BOZOR MUVOZANATI**

**Annotatsiya:** Bu maqola orqali talab va taklif, bozor muvozanati haqida qisqacha tushunchalar va turli terminlar uchun izohlar jamlab ko‘rsatiladi. Talab va taklif, bozor muvozanati haqida ma‘lumotlar, xulosalar va takliflar berib o‘tiladi.

**Kalit so‘zlar:** talab, taklif, muvozanat, ehtiyoj, talab qonuni, taklif qonuni, Engel qonuni, Giffen samarasi.

---

**Kirish.** Hozirgi kunda butun dunyo bo‘yicha insonlar uchun sifatli xizmat ko‘rsatish va yuzaga kelayotgan talablar uchun takliflar yaratish hamda inson ehtiyojlarini qondirish dalzarb masalalardan biri bo‘lib kelmoqda. Shu sababdan prezidentimiz SH. Mirziyoyev tomonidan qabul qilinayotgan qarorlar, jumladan, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, yurtimiz uchun juda ahamiyatli bo‘lgan va inson ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan asosiy unsurlardan biri hisoblanadi. Yurtimizda talab va taklif muvozanatini ta‘minlash, zararlarsiz samarali faoliyat yuritish bo‘yicha yangi ko‘nikmalar va strategiyalar amalga oshirib kelinmoqda.

### **Asosiy qism.**

Talab va taklif turli davlarda va davlatning turli holatida turlicha bo‘lishi mumkin. Talab va taklif tushunchasi turli olimlar tomonidan turlicha izohlangan va turlicha qarashlar mavjud. Talab bu ehtiyojlarning pul bilan ta‘minlangan qismi hisoblanadi ya‘ni ehtiyoj ma‘lum miqdordagi pul bilan ta‘minlanmasa u shunchaki xohish istak bo‘lib qoladi, ammo qachonki u pul bilan ta‘minlansa talab hosil bo‘ladi. Talab o‘z navbatida ikki turga bo‘linadi: yakka talab va bozor talabi. Shaxs, korxonalar, firma, oilalarning tavarlarining bir tuuriga bo‘lgan talabi yakka talab deyilsa, bir qancha iste‘molchilarning bir mahsulotga bo‘lgan talabi bozor talabi deyiladi. Masalan, qish mavsumida insonlarning qishki kiyimlarga bo‘lgan talabi bozor talabi deyiladi. Ammo bir korxonaning biror mahsulotga masalan yog‘ochga bo‘lgan talabi yakka talab deyiladi. Shu bilan birga, talab miqdori hech qachon bir xil muvozanatda turmaydi va talabning o‘zgarishiga bir qancha omillar ta‘sir ko‘rsatadi. Bular:

- Iste‘molchining didi – bunda insonlarning didiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi, moda ortidan ergashishi va narxning ma‘lum darajasida talabning ortiahiga olib keladi;
- Bozordagi iste‘molchilar soni – bundan ko‘rinadiki, bozorda insonlar qanchalik ko‘p bo‘lsa talab shuncha ko‘p bo‘ladi, iste‘molchi qancha kam bo‘lsa talab shunchalik kam bo‘ladi;
- Iste‘molchining daromadi – insonlarning o‘z shaxsiy daromadidan kelib chiqqan holda bozordagi mahsulotlarning o‘z daromadiga yarashasini sotib olishga qodir bo‘lishiga aytiladi;
- Bir biriga bog‘liq tovarlarning narxi – ya‘ni bozorda palto va kurtka narxlarining bir biriga mutanosib bo‘lishiga aytiladi;
- Kelajakda narx va daromadlarning o‘zgarish ehtimoli – bu insonlarning kutishi deb ham yuritildi va narxlarning eng arzon nuqtasida mahsulotlarni sotib olishi va o‘z talablarini

qondirishi demakdir ya'ni narx qiymat bo'lgan vaqtda ammo kelajakda narxlarning tushish ehtimoli bor bo'lganda iste'molchining kutishi yuzaga keladi.

Ma'lum vaqt oralig'idagi narxlarning muayyan darajasida ishlab chiqaruvchi va sotuvchilar tomonidan ma'lum turdagi tovar va xizmatlarning bozorga chiqarilgan miqdoriga taklif deyiladi. Narxlar o'zgarishi bilan ta'rif hajmi ham o'zgarishi sababidan narxga ham bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi. Bular:

- Resurslar narxi;
- Ishlab chiqarish texnologiyasi;
- Soliq va subsidiyalar;
- Boshqa tavarlar narxi;
- Narx o'zgarishining kutilishi;
- Bozordagi sotuvchilar soni.

Talab miqdori bilan taklif miqdori bir biriga teng bo'lgan holat bozor muvozanati deyiladi. Bozor muvozanati vujudga kelgan holda shakllangan narx bozor narxi yoki muvozanatlashgan narx deyiladi.

Bozordagi bir zumlik, qisqa davrli va uzoq davrli muvozanatlik holatni farqlash zarur. Bir zumlik muvozanat uchun taqdim qilinadigan tovarlarning o'zgarish yoki doimiy miqdori xosdir. Bu ishlab chiqarishning bozor vaziyatiga tez, mirdaniga moslasha olmasligi bilan bog'liq. Qisqa davrlik muvozanat vaqtinchalik amal qiluvchi omillardan foydalanish asosida ishlab chiqarish va taklifni ko'paytirish imkoniyatini taqazo qiladi. Bular ishlab chiqarishni qayta qurollantirish, yangilash va quvvatlarni vujudga keltirish bilan bog'liq investitsiyalarni amalga oshirish, shuningdek, yangi korxonalarini qurishdan iborat.

#### **Xulosa va takliflar.**

Talab va taklifni muvozanatli ushlab va bozor muvozanatini ta'minlash, iste'molchilarga qulayliklar yaratib berish, narxlar darajasi mutanosibligi bozordagi ham iste'molchi ham sotuvchilar uchun qulay va foydali bo'ladi deb o'ylayman. Birinchidan, bozorda raqobarni yuksaltirish va sotuvchilar sonini ko'paytirish lozim. Ikkinchidan, bozor narxlarini yani hudud va turar joy uchun olinadigan narxlarni kamaytirib sotuvchilarga qulaylik yaratish lozim. Uchunchidan, chet davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini mustahkamlash va zamonaviy texnikalarning yurtimizga kirib kelishini jadallashtirishimiz lozim.

#### **Foydalanilgan Adabiyotlar:**

[www.wikipedia.org](http://www.wikipedia.org)

[www.azkurg.org](http://www.azkurg.org)

iqtisodiyot nazariya darsligi. 2022